

Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar sifatini yanada yaxshilash, statistik hisobotlarni to'g'ri va keng qamrovli olib borishni tashkil etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika tizimi xodimlari bilan bir qatord

Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar sifatini yanada yaxshilash, statistik hisobotlarni to'g'ri va keng qamrovli olib borishni tashkil etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika tizimi xodimlari bilan bir qatorda respublikadagi korxonalar va tashkilotlarning hisobchi va iqtisodchi xodimlari malakasini oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 17 apreldagi 01/1-01-17-89-sonli xatini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2018 yil 21-26 may kunlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi dasturi asosida respublika iqtisodiyot tarmoqlari va byudjet tashkilotlarida xizmat qilayotgan iqtisodchilari, hisobchilari va mutaxassislari malakasini oshirish ilovaga muvofiq o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari (A.Tajetdinov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi (A.Qaypbergenov), Statistika boshqarmasi (Sh.Ospanov) hamda Nukus shahar hokimi (P.Tureshov) o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'ladigan barcha shart-sharoitlarni yaratish hamda o'qish jarayoniga tegishli tinglovchilarni jalb etishni ta'minlash va o'quvlarni yuqori saviyada o'tkazilishini tashkillashtirsin.
3. Qoraqalpog'iston Davlat universiteti (A.Reimov) universitet binosida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan komp'yuter sinfi va auditoriyalar ajratilishini ta'minlasin.
4. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar korxonalar va tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin. Shartnomalar tuzilishi o'quv mashg'ulotlari boshlangunga qadar o'n kun oldin rasmiylashtirilishi hamda tegishli nusxalari ijrochiga etkazilishi ta'minlasin.
5. Nukus shahar hokimligi, vazirliklar, boshqarmalar, korxonalar hamda tashkilotlar rahbarlari o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlariga ilovaga muvofiq qatnashadigan tinglovchilar ishtirokini ta'minlashini nazoratga olsinlar.
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi (Sh.Ospanov) tashkil etiladigan o'quv kursi yakunlari bo'yicha ma'lumotlarni 2018 yilning 10 iyuniga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga taqdim etilishi ta'minlasin.
7. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari A.Tajetdinov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlari](#)